

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

- **Fenilketonuriya:** fenilalanin gidroksilaza fermenti yetishmovchiligi tufayli fenilalanin parchalanmaydi, va miya faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Vaqtida aniqlanmasa, aqliy zaiflikka olib keladi.
- **Podagra:** purin almashinuvi buzilishi natijasida siydik kislotasi to‘planib, bo‘g‘imlarda og‘riq va yallig‘lanishga olib keladi.
- **Metabolik sindrom:** abdominal semizlik, gipertoniya, insulin rezistentligi va dislipidemiya bilan kechadi. Yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi.

Ushbu kasalliklarni vaqtida aniqlash uchun metabolik ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilish, hayot tarzini nazorat qilish va genetik testlar o‘tkazish zarur.

Xulosa: Modda almashinuvi – tirik organizmlarning hayotiy faoliyatini boshqaruvchi murakkab va muvozanatlangan biologik jarayonlar yig‘indisidir. Anabolizm va katabolizm o‘rtasidagi muvozanat hujayra faoliyati, energiya almashinuvi hamda organizmnинг omon qolishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. ATP molekulasi energiya uzatishning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, fermentlar va gormonlar ushbu jarayonlarni nozik darajada boshqaradi. Metabolik buzilishlar esa organizmda turli kasalliklar va disfunktsiyalarga olib keladi, shuning uchun metabolizmni chuqur o‘rganish zamonaviy tibbiyot, biokimyo va genetik tadqiqotlar uchun nihoyatda muhimdir. Kelajakda metabolik kasalliklarni erta aniqlash va individual terapeutik yondashuvar ishlab chiqish uchun metabolizm jarayonlarini chuqur va tizimli tahlil qilish zarur bo‘ladi.

FOYDANALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Alberts B. et al.** (2014). *Molecular Biology of the Cell* (6th ed.). Garland Science.
2. **Berg, J.M., Tymoczko, J.L., Gatto, G.J.** (2019). *Biochemistry* (9th ed.). W.H. Freeman and Company.
3. **Voet D., Voet J.G.** (2011). *Biochemistry* (4th ed.). Wiley.
4. **Lippincott’s Illustrated Reviews: Biochemistry** (7th ed.). Wolters Kluwer, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari uchun "Biokimyo" darsligi, Tibbiyot nashriyoti, 2020.
6. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/> – PubMed ilmiy maqolalar bazasi.
7. <https://www.khanacademy.org/science/biology> – Khan Academy'dagi metabolizmga oid bepul darslar

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUV

Namozova Sabrina Akram qizi
Qarshi davlat universiteti
Pedagogika fakulteti, 1-kurs talabasi.

“ВЕHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimidagi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning mazmuni, asosiy tamoyillari va uning amaliy ahamiyati yoritilgan. Muallif o‘quvchi shaxsini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yish, uning individual ehtiyoj va imkoniyatlariga mos yondashish g‘oyasini ilgari suradi. Kompetensiyaviy ta’lim, raqamli savodxonlik va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali zamonaviy insonni tayyorlash masalalari ham tahlil etilgan. Maqolada ta’lim jarayonining insonparvarlik, moslashuvchanlik va kelajakka tayyorlash tamoyillari asosida tashkil etilishi zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘z: shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik yondashuv, kompetensiyalar, raqamli savodxonlik, hayotiy ko‘nikmalar, zamonaviy ta’lim, innovatsion yondashuv, moslashuvchanlik, mustaqil fikrlash.

ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: СОВРЕМЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация: В статье рассматриваются содержание, основные принципы и практическое значение личностно-ориентированного подхода в современной системе образования. Автор выдвигает идею о необходимости поставить ученика в центр образовательного процесса и адаптировать подход к его индивидуальным потребностям и возможностям. Также были проанализированы вопросы подготовки современного человека посредством компетентностного образования, цифровой грамотности, формирования жизненных навыков. В статье подчеркивается необходимость организации образовательного процесса на принципах гуманности, гибкости и готовности к будущему.

Ключевые слова: личностно-ориентированное образование, педагогический подход, компетенции, цифровая грамотность, жизненные навыки, современное образование, инновационный подход, гибкость, самостоятельное мышление.

PERSONALISED EDUCATION: A MODERN PEDAGOGICAL APPROACH

Abstract: This article discusses the content, basic principles and practical significance of the person-centered approach in the modern education system. The author puts forward the idea of placing the student's personality at the center of the educational process, adapting it to his individual needs and capabilities. The issues of training a modern person through the formation of competency-based education, digital literacy and life skills are also analyzed. The article emphasizes the need to organize the educational process based on the principles of humanity, adaptability and preparation for the future.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Keywords: person-centered education, pedagogical approach, competencies, digital literacy, life skills, modern education, innovative approach, flexibility, independent thinking

KIRISH.

Bugungi kunda ta’lim sohasida tub islohotlar olib borilayotgan bir paytda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar alohida e’tiborni talab qilmoqda. Ulardan biri — shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi bo‘lib, u o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini, mustaqil fikrlashini va ijodkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu yondashuvda o‘quvchi ta’lim jarayonining markaziga qo‘yiladi va pedagog asosiy rahnamo rolini bajaradi. Ushbu yondashuvda ta’lim jarayoni markaziga o‘qituvchi emas, balki o‘quvchining o‘zi qo‘yiladi. Bu esa pedagogdan har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish, unga mos metodlar va vositalarni qo‘llash, ta’limni shaxsiylashtirishni talab qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘quvchilar nafaqat tayyor bilimlarni egallaydilar, balki ularni hayotda qo‘llay olish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash kabi zamonaviy kompetensiyalarni ham shakllantiradilar. Ushbu yondashuv o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol ishtirotkchiga aylantiradi, ta’limni hayot bilan uzviy bog‘laydi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyani oshiradi, ularning shaxsiy rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim faollik markazida tarbiyalanuvchining o‘zi, ya’ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istiklari, niyatları, maqsadları, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta’lim jarayoni ta’lim “bilimlarni kattadan bolaga o‘tkazish” modelidan, “bola tashabbuslari ma’qullanadigan va bola ta’lim jarayonida faol ishtirot etadigan” modelga yo‘naltirilishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim — bu o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan tashqari, uning individual xususiyatlarini, o‘quv sur’atini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishdir. G.Davronova fikricha “Shaxsgayo‘naltirilgan yondashuv ta’lim tizimida o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini,ehtiyojlarini,qiziqishlarini,o‘rganish uslublarini,intellectual imkoniyatlarini va emotsiyonal holatini hisobga olishga asoslangan pedagogik yondashuvdir”.[1]. Ushbu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

O‘quvchining shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish

Mustaqil fikrlash va o‘zini o‘zi anglashga yo‘naltirish

Faol, ijodiy va mas’uliyatli shaxsni shakllantirish

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik muhitini yaratish

Zamonaviy dunyoda bolalar, ular qaysi mamlakatda tug‘ilishidan qat’i nazar, tez o‘zgarayotgan hayotning murakkab va sinovlarga boy yo‘lidan o‘tishlari kerak bo‘lmoqda. N.Valixanova takidlashicha “O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchi shaxsiy

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi”.[2].

Ilm-fan va texnika sohasidagi ixtiolar natijasida har yili minglab yangi kasblar yuzaga chiqmoqda, ayrim kasblar esa o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda..

Shunday bir sharoitda inson har doim yangilanib borishi, butun umr davomida o‘rganishi, bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirib borishi zarur. Bu esa ta’lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab etadi — endi ta’lim faqat ma’lumot berish emas, balki shaxsning doimiy o‘sishiga yo‘naltirilgan uzluksiz jarayonga aylanishi kerak. Bolalarni kelajakdagi hayotga tayyorlashda ularning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, muammolarni hal qila olish qobiliyati va emotsiyal intellektini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.A.Raximov, O.Rasulov va A.Matyaqubov aytishlaricha “O‘qitish jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashning asosiy mohiyati – mashg‘ulot davomida barcha talabalar o‘quv-bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, muhokama etilayotgan muammolar, voqeа va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo‘llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi.”[3] Shu bois, zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, raqamlı savodxonlik, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish kabi yo‘nalishlar markazga chiqmoqda. Farzandlarimiz faqat hozirgi zamonga emas, balki hali mavjud bo‘lmagan, ammodo tez orada hayotimizga kirib keladigan kelajak uchun ham tayyor bo‘lishi kerak.

O‘quvchi o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisi bo‘ladi.

O‘qituvchi esa **yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, sherik** sifatida namoyon bo‘ladi. Maqsad — **bilim berish emas, balki bilim olishga o‘rgatish.** An’anaviy bilimga asoslangan ta’limdan farqli ravishda, kompetensiyaviy ta’lim:

Hayotda foydali bo‘ladigan ko‘nikmalarni rivojlantiradi: tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, qaror qabul qilish, muammoni hal qilish. “Bilim olish” emas, **bilimni qo‘llash** asosiy maqsad bo‘lib qoladi. Har bir fan o‘z predmeti doirasida **funktsional savodxonlikni** shakllantiradi Texnologiyalar jamiyatning har sohasiga chuqur kirib borgan bir paytda:

O‘quvchi axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, undan to‘g‘ri foydalanishga o‘rganishi zarur.

Dasturiy ta’minotlar, sun’iy intellekt, onlayn resurslar bilan ishslash ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Raqamlı savodxonlik — **ta’lim sifatini oshirish, ta’limga teng imkoniyat yaratish vositasi** hisoblanadi.

Farzandlarimiz nafaqat darsni bilishi, balki **real hayotda yashash, ishslash, muloqot qilish, muammolarga yechim topa olish** qobiliyatlariga ham ega bo‘lishi kerak:

Moslashuvchanlik – tez o‘zgarayotgan sharoitga moslashish.

Ijodkorlik – yangicha fikrlay olish.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar – o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalarni tushunish, empatiya.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Kelajak kasblari va hayot tarzi bugungidan butunlay farq qiladi:

Hali mavjud bo‘limgan kasblar, texnologiyalar, faoliyat turlari yuzaga kelmoqda (sun’iy intellekt, biotexnologiya, kosmik sanoat va h.k.).

Demak, o‘quvchilarini **nafaqat hozirgi muhitga**, balki **noaniq kelajak sharoitiga** tayyorlash kerak bo‘ladi. Bu esa moslashuvchan, o‘z-o‘zini boshqaruvchi, innovatsion fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashni talab etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim — zamonaviy pedagogikaning markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish, axborotni tahlil qilish va ijtimoiy-emotsional salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shaxsiy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish orqali zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, innovatsion fikrlaydigan, kelajakka tayyor shaxsni shakllantirish mumkin.P.Qurbanov, I.Axatovlar tadqiqotiga binoan “Kasb tanlashga yo‘llash jarayonining nazariy asoslari. Kasb tanlashga yo‘llash – bu o‘quvchilarni o‘z qiziqishlari, qobiliyatlarini va shaxsiy sifatlariga mos kasb tanlashga tayyorlash hamda jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ongli ravishda kasb tanlashga ko‘maklashish jarayonidir”. [4].

Shu sababli, bu yo‘nalish barcha darajadagi pedagogik faoliyatda muhim o‘rin egallashi kerak.

XULOSA.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim — bu zamonaviy ta’limning ajralmas qismidir. Ushbu yondashuv o‘quvchini passiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko‘radi. U o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni erkin fikrlaydigan, ijtimoiy faol, mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagoglar ushbu yondashuvni chuqur o‘zlashtirib, amaliyotda keng tatbiq etishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Numondjonovna, D. G. (2024). SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDAGI TA’LIMNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 197-202.
2. Valixanova, N. (2024). TARBIYA DARSLARIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA SHAXSGA YO ‘NALTIRILGAN TA’LIM. *University Research Base*, 55-58.
3. Raximov, A. K., Rasulova, O. O., & Matyaqubov, A. Q. TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA SHAXSGA YO ‘NALTIRILGAN TA’LIM PARADIGMASINING ROLI. *Муассасаларидаги та’лим тизимида шахсга ўзларига оғизлек*, 94.
4. Qurbanov, P., & Axatov, I. (2025). TA’LIM MUASSASALARIDA KASB TANLASHGA YO’LLASH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI TARBIYALASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Молодые ученые*, 3(11), 17-21.
5. Kukiboyeva, M. (2025, April). SHAXSGA YO ‘NALTIRILGAN YONDASHUVNING INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI O ‘QITISHDAGI XUSUSIYATLARI VA

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

TAMOYILLARI. In International Conference on " Current Issues in the Development of Science and Education" (Vol. 1, No. 1, pp. 89-95).

6. Xurshidaxon, A., & Ikromjonovna, J. S. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH VA G ‘AMXO ‘RLIK KO ‘RSATISHGA O ‘RGATISH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 551-553.

7. Botirovna, X. S. (2024). TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSİYALASH JARAYONIDA BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNI SHAXSGA YO ‘NALTIRILGAN VA REFLEKSIYA ASOSIDAGI TEXNOLOGİYALAR BILAN TAYYORLASHNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(2), 223-227.

8. Xasanovna, R. M. (2025). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. *IKPO журнал*, 14(02), 998-1000.

9. Salmanova, M. (2024). SHAXSGA YO’LLANGAN TA’LIM USULLARINI QO’LLANISHDA MUVAFFAQIYATNI BAHOLASH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(3), 37-42.

10. Mirzatillayevna, Y. S. (2024). GOSPITAL TA’LIMDA-“MEHRLI MAKTAB” LAR PEDAGOGIK JARAYONDA TURLI TA’LIM BERISH USULLARIDAN FOYDALANISH. *O’ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(34), 327-331.

BEHBUDIY IZDOSHLARI

Raxmatova Saodat Kamiljonovna

Qarshi Davlat Texnika universiteti sirtqi bo ‘lim

4 - kurs talabasi Telefon: 99888-310-15-87

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Mahmudxo ‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati va uning zamонавиy izdoshlari haqida so‘z yuritildi. Behbudiy merosining millat ma’naviyati, ta’lim–tarbiya va vatanparvarlik g’oyalarining shakllanishidagi o‘rni tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Behbudiy, jadidchilik, izdoshlik, ma’naviyat, zamondoshlik, yoshlar, ta’lim, o‘zlikni anglash.

Kirish. Taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar ma’naviyat va ma’rifat sohasini ham chetlab o’tmadi. Xususan, yoshlar, ularning ma’naviyati, vatanparvarlik tuyg‘ulari e’tiborimizni tortishi tabiiy. Ayni yoshlar tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda esa jadidchilik harakati ularning beqiyos merosini o‘rganish hayotga tatbiq etish katta ahamiyatga egadir.

Har bir millatning o‘ziga xos madaniyati, adabiyoti va matbuoti, milliy tarixi, kitoblari, shoir va adiblari bo‘ladi. Bir millatning taraqqiyoti, madaniyati qay darajada ekanligini bilmoq uchun uning adabiyoti va matbuotini bir daraja ko‘zdan kechirmoq lozim.